

**O'ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD
SHAYXXODNING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARI**

**Mamurova Feruza Islomovna
Axmatova Madina Yusuf qizi
Qoryog'diyev Jo'rabek Bobir o'g'li**

Annotatsiya: Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" asari kelib chiqishi hamda asarning hozirga qadar ham mutoola qilish uchun arzigulik asarlardan biri bo'lgani haqida so'z boradi

Kalit so`zlar: jasur, asar, sarkarda, jang, sohil, dushman, boshchi, sababchi, o'tmishda, farzand.

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Maqsud Shayxzoda bir ming sakkizinch yil yettiinchi oktabrda Ozarboyjonning Oqdosh shahrida tavallud topgan. Shoир birming to'qqizyuz yigirma sakkizinch yilda Toshkentga kelib, umrining oxiriga qadar poytaxtda yashab, ijod qilgan. U bu shaharni ikkinchi vatani deb bilgan. Shayxzoda «O'n she'r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Kurash nechun», «Jang va qo'shiq», «Kapitan Gastello», «Ko'ngil deydiki...» kabi she'riy to'plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarni yaratdi.

Maqsud Shayxzoda bir ming to'qqiz yuz qirq to'rtinchchi yilda, ayni ikkinchi jahon urushi payti, keyinchalik boshiga ko'p g'avg'olar (o'zbek xalqining "feodal o'tmishini ideallashtirish"da ayblanib, hibsga olingan) kelishiga sababchi bo'lgan «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasini nega yozgan edi?

Taniqli adabiyotshunos Naim Karimovning fikriga ko'ra, urush yillarda hokimiyat vakillari yozuvchilarni o'tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da'vat etishgan. Ular bunday asarlar xalq va armiyani o'tmishdagi jasur sarkardalardan, xalq qahramonlaridan ibrat olishga da'vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlari ruhida tarbiyalashi mumkin degan qarashda bo'lishgan. Shunday ijodiy buyurtmani olgan Shayxzoda o'zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin Manguberdi haqida sahna asari yozishga kirishgan. Respublikaning o'sha paytlardagi rahbari Usmon Yusupov shoирning asarini tezroq yakunlashi uchun uni yurtimizning xushmanzara maksanlaridan biri Farg'ona viloyatiga

yuboradi. "Boshqa ishlar bilan xayolingni bo'lma. Xalq sendan Jaloliddin to'g'risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodiya borib, uni tezroq tugallab qayt!" deya rahbar shoirni ruhlantiradi. Shunday qilib, Maqsud Shayxzoda rafiqasi Sakinaxonim bilan Farg'onaga borib, olti oy ichida tarixiy dramani yozadi.

Jaloliddin Manguberdi haqida ayni paytga qadar nafaqat yurtimizda, balki boshqa mamlakatlarda ham juda ko'p tarixiy va badiiy asarlar yaratilgan. Mashhur Ozarbayjon adibi o'zbek o'g'loni Maqsud Shayxzoda birinchilardan bo'lib o'zining asarlarida Jaloliddinning qahramonliklarini tarannum etgan. U buyuk sarkarda haqida vatan erki haqida jangchilarimizni ruhiyatini ko'taruvchi juda ser mazmun asar bo'lib kelmoqda. Hozirga qadar uning har bir satrlari, har bir so'zleri hali-hamon tildan tilga o'tib kelmoqda.

Chingizzon qo'shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oladi. bir ming ikkiyuzi yigirma birinchi yil yigirma beshinchi noyabrda bo'lgan tengsiz jangda (Sind daryosi bo'yidagi jang) mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan 18-20 metrlik jarlikdan Sind daryosiga sakrab, uning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho'l hozirda ham Cho'li Jaloliy deb ataladi). Chingizzon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: „Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!“, degan. Oradan bir necha kun o'tgach, Jaloliddin Manguberdi qo'shini soni 7 mingga yetdi. Unga Kulbars bahodir, Kabkuh va Sa'diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o'z kishilarini bilan kelib qo'shiladi. Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning notanish cho'lida och, juldur kiyimli jangchilarini bilan sargardonlikda qolganidan so'ng. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo'lgan Shatra viloyati rana ya'ni shohi Jaloliddin Manguberdiga xujum qilgan. Jaloliddin Manguberdining meraganlik bilan otgan kamon o'qidan rana halok bo'ladi, qo'shini esa parokanda bo'lib chekinadi. Jaloliddin Manguberdi katta o'ljani qo'lga kiritadi. Bunda jaloliddinning qahramonligi, bilimining tengsizligi ham yaqqol tasvirlab berilgan.

Tarixdan ma'lumki, Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar sulolasining zabardast vakili bo'lib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda katta qahramonliklar ko'rsatgan. Xususan, bir ming ikkiyuzi yigirma birinchi yil to'qqizinchi dekabrda Hind daryosi bo'yida bo'lib o'tgan jang buyuk sarkarda hayotida katta o'rinni tutadi. Ushbu jangda u Chingizzon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlariga munosib qarshilik ko'rsatadi. Ammo, kuchlar teng emasdi. O'z ahli ayolini dushman qo'liga tushib, xo'rلانishini istamagan sarkarda butun

haramni suvgaga cho'ktirishni buyurib, o'zi qolgan askarlari bilan daryoning narigi sohiliga o'tib ketadi.

Bundan tashqari tarixchi va noshir Xorazmshoxning kotibi Shihobuddin Muhammad an-Nasaviy ham o'zining "siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi" asarida manguberdini quyidagicha ta'riflaydi "Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi. Shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi. U mard, jasur bo'lib, sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kamgapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lar edi"

Mamlakatimizda Jaloliddin Manguberdi siymosiga juda katta ehtirom bilan yondoshiladi. 1999 yilda sarkardaning 800 yilligi yurtimizda keng miqyosda nishonlangan. Xuddi shu yili Urganch shahrida buyuk bobokalonimizga yodgorlik o'rnatalgan. 2000 yilda Jaloliddin Manguberdi ordeni ta'sis etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Maqsud Shayxzoda" – Naim Karimov, 2018, T.
2. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In *E-Conference Globe* (pp. 176-178).
3. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.
4. Islomovna, M. F., & Abduvoxbob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA)* (pp. 19-20).
5. Mamurova, F. (2023). MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROXI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(11), 9-11.
6. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions For Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.
7. Olimov S. S., Mamurova D. I. Graphic Information Processing Technology and its Importance //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 10. – C. 1-4.

8.Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 17-22.

9.Khodjayeva N. S., Mamurova D. I., Nafisa A. Importance in pedagogical techniques and educational activity //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – C. 5-5.

10.Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – T. 27. – №. 4.

11.Xodjayeva N. S. et al. KOMPYUTER GRAFIKASI NING INFORMATSION JAMIYATDAGI AHAMIYATI, RO'LI VA O'RNI //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – T. 1. – C. 74-77.

12.Saidovna, Turdieva Nigora. "Raising the attitude of primary school students to education as a value." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.10 (2020): 506-510.

13.Saidovna T. N. Pedagogical ethics and pedagogical tact //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 3. – C. 305-310.

14.Saidovna T. N. The Concept of the Teacher's Pedagogical Technique //European Multidisciplinary Journal of Modern Science. – 2022. – T. 4. – C. 877-883.